

## IBN SINONING “ISHQ RISOLASI” VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Raupova Ra'no Soyibovna, Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

## IBN SINO'S “TREATISE ON LOVE” AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS


Raupova Rano Soyibovna, Researcher at Bukhara State University

## “ТРАКТАТ О ЛЮБВИ” ИБН СИНО И ЕГО ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Раупова Рано Сойибовна, научный исследователь Бухарского  
государственного университета



e-mail:  
ranoraupova563@  
gmail.com



**Annotatsiya:** Mazkur maqola Ibn Sinoning “Ishq risolasi” asarida bayon etilgan ishq tushunchasining falsafiy mazmunini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada ishq Ibn Sino ta’limotida faqat hissiy holat emas, balki borliqning harakatini ta’minlovchi ontologik kuch sifatida talqin etilishi yoritilgan. Shuningdek, ishqning moddiy, hayvoniy, ruhiy va ilohiy darajalari, ularning kamolot tushunchasi bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan. Ishda Ibn Sinoning yunon falsafasi (Platon va Aristotel) hamda islom falsafasi an’analari asosida ishlab chiqqan ishq konsepsiyasi ochib berilib, uning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ishq, ma’shuq, motivatsion kuch, ruhiy mukammallik, moddiy ishq, hayvoniy ishq, ruhiy ishq, ilohiy ishq.

**Annotation:** This article is devoted to the analysis of the philosophical content of the concept of love described in Ibn Sino’s “Treatise on Love”. The article highlights the interpretation of love in Ibn Sino’s teachings not only as an emotional state, but also as an ontological force that ensures the movement of being. The material, animal, spiritual and divine levels of love, their inextricable connection with the concept of perfection are also analyzed. The work reveals the concept of love developed by Ibn Sino on the basis of the traditions of Greek philosophy (Plato and Aristotle) and Islamic philosophy, and justifies its role in human spiritual perfection.

**Keywords:** Love, lover, motivational power, spiritual perfection, material love, animal love, spiritual love, divine love.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу философского содержания концепции любви, описанной в “Трактате о любви” Ибн Сино. В статье освещается интерпретация любви в учении Ибн Сино не только как эмоционального состояния, но и как онтологической силы, обеспечивающей движение бытия. Также анализируются материальный, животный, духовный и божественный уровни любви, их неразрывная связь с понятием совершенства. Работа раскрывает концепцию любви, разработанную Ибн Сино на основе традиций греческой философии (Платон и Аристотель) и исламской философии, и обосновывает её роль в духовном совершенстве человека.

**Ключевые слова:** Любовь, возлюбленный, мотивационная сила, духовное совершенство, материальная любовь, любовь к животным, духовная любовь, божественная любовь.

**Kirish (Introduction).** Sharq falsafasi tarixida Abu Ali ibn Sino (980–1037) nafaqat tibbiyot va mantiq sohalarida, balki metafizika, ontologiya va axloq falsafasida ham chuqur iz

qoldirgan mutafakkir hisoblanadi. Uning “Ishq risolasi” asari ishq masalasiga bag‘ishlangan maxsus falsafiy risola bo‘lib, unda ishq tushunchasi keng va tizimli tarzda yoritiladi.

Mazkur asarda Ibn Sino ishqni oddiy insoniy tuyg‘u sifatida emas, balki mavjudotlarni kamolot sari yetaklovchi ichki motivatsion kuch sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, borliqdagi har bir mavjudot o‘z tabiatiga mos mukammallikka intiladi va ana shu intilish ishq deb ataladi. Shu sababli ishq faqat inson ruhiga xos hodisa emas, balki butun koinotni qamrab oluvchi umumiy qonun sifatida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ibn Sinoning “Ishq risolasi” ni falsafiy tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions).** “Ishq risolasi” — bu Ibn Sino tomonidan yozilgan maxsus risola bo‘lib, unda “ishq” (ma’shuqqa bo‘lgan muhabbat) falsafiy, ontologik va psixologik jihatdan tushuntiriladi. Ibn Sino bu asarda sevgi mohiyatini Yunon falsafasi (Platon, Aristotel) va islom falsafasining nazariy tasavvurlariga asoslanib tahlil qiladi<sup>1</sup>. Ibn Sinoning “Ishq risolasi” uning falsafiy merosida alohida o‘rin tutuvchi asar bo‘lib, unda ishq tushunchasi hissiy holat sifatida emas, balki borliqning harakatini ta’minlovchi universal tamoyil sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir ishqni ontologiya, psixologiya va axloq falsafasi doirasida izohlaydi va uni mavjudotlarning kamolot sari intilishida asosiy sabab deb biladi.

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, har bir mavjudot o‘z tabiatiga mos mukammallikka intiladi, va aynan shu intilish ishq deb ataladi. Demak, ishq faqat insoniy muhabbat emas, balki butun borliqni qamrab oluvchi kosmik hodisadir. Masalan, o‘simlikning quyosh nuri tomon o‘sishi — uning tabiiy kamolotga intilishi bo‘lib, Ibn Sino buni ishqning eng soddashakli sifatida tushuntiradi. Suvning pastlikka qarab oqishi ham tasodifiy emas, balki o‘z tabiiy mukammalligiga yetishish istagi bilan bog‘liq. Bu yondashuv Aristotelning “harakat sababga muhtoj” degan g‘oyasi bilan uyg‘un bo‘lib, Ibn Sino ushbu sababni ishq orqali izohlaydi. “Ishq risolasi”da Platon va Aristotel

falsafasining ta’siri yaqqol seziladi. Platonda ishq — go‘zallik orqali mutlaq haqiqatga yetishish yo‘li. Ibn Sino bu fikrni qabul qilgan holda, ishqni ruhni moddiy dunyodan ilohiy haqiqat sari olib boruvchi kuch deb baholaydi. Aristotelida har bir narsa o‘z “maqsad sababi”ga ega. Ibn Sino esa ishqni ana shu maqsadga yetkazuvchi ichki quvvat sifatida talqin qiladi. Masalan, inson go‘zal axloq, ilm yoki hikmatni sevsa, u tashqi manfaat uchun emas, balki ruhiy mukammallik uchun intiladi. Bu esa Platonning “go‘zallikdan haqiqatga ko‘tarilish” g‘oyasiga mos keladi.

Ibn Sino ishqni inson ruhiy tuzilishi bilan chambarchas bog‘laydi. Uning fikricha, inson ruhida shahvoniy quvvat, g‘azabiy quvvat, aqliy quvvat mavjud. Aqliy quvvat ustun bo‘lganda, ishq nafsiy istakdan chiqib, ma’rifiy va axloqiy sevgiga aylanadi. Masalan, boylikka haddan tashqari bog‘lanish — quyi darajadagi ishq. Ilmga, haqiqatga muhabbat — oliy darajadagi ishq bo‘lib, insonni ma’naviy yuksaltiradi. “Ishq risolasi”da islom falsafasining asosiy g‘oyasi — Alloh mutlaq kamolot egasi degan tushuncha markaziy o‘rin tutadi. Ibn Sinoning fikricha, barcha ishqlar oxir-oqibat ilohiy ishqqa borib taqaladi, chunki barcha mukammalliklar manbai Yaratgandir. Inson avval tashqi go‘zallikni sevadi, keyin axloqni, ilmni va nihoyat, bu fazilatlarining manbai bo‘lgan ilohiy haqiqatni angelay boshlaydi. “Ishq risolasi”ning ahamiyati shundaki, u ishqni faqat hissiyot sifatida emas, borliqni harakatga keltiruvchi sabab sifatida tushuntiradi, aql va muhabbatni bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida ko‘rsatadi.

Ibn Sinoning fikricha, ishq — mavjudotlarni mavjud qiluvchi motivatsion kuchdir. Undagi maqsad — mavjudotlarni yuqori kamolotga (masalan, aqliy, ruhiy mukammallikka) yetaklash. Ishq hayvoniy, ruhiy va ilohiy darajalarga bo‘linadi. Eng oliy daraja bu — Allohga bo‘lgan ishqdir<sup>2</sup>. Ibn Sino ta’limotiga ko‘ra, ishq borliqning ichki harakatlantiruvchi quvvati bo‘lib, u tasodifiy hissiyot emas, balki mavjudotlarning mavjud bo‘lishi va rivojlanishining zaruriy sababidir. Har bir

<sup>1</sup> Emil L. Fackenheim. A Treatise on Love by Ibn Sina. <https://traditionalhikma.com/wp-content/uploads/2015/02/A-Treatise-on-Love-by-Ibn-Sina-Translated-by-Emil-L.-Fackenheim.pdf>

<sup>2</sup> Sina Mashayekhi, Mohammadjavad Esmaeili. Philosophical Analysis of the Flow of Love in Designer Identities in Ibn Sina's Risālah fi al-’ishq (Treatise on Love). February 2023. [https://orj.sru.ac.ir/article\\_1735.html](https://orj.sru.ac.ir/article_1735.html)

mavjudot o'z tabiatida yetishishi lozim bo'lgan mukammallikka intiladi va aynan shu intilish ishq sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ishq faqat inson qalbiga xos hodisa emas, balki butun kosmik tartibning asosiy tamoyilidir. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, mavjudotning qiymati uning kamolot darajasi bilan belgilanadi. Kamolot esa — mavjudotning o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishidir. Ishq ana shu ro'yobga chiqarish jarayonini harakatga keltiradi. Masalan, inson ilmga oshno bo'lsa, bu shunchaki qiziqish emas, balki aqlning mukammallikka intilishidir. San'atkor go'zallikni yaratishga intilsa, u o'z ruhiy imkoniyatlarini yuksaltirishga harakat qilmoqda. Demak, ishq — kamolotga yo'naltirilgan ichki ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino ishqni darajalarga ajratib tahlil qiladi. Bu tasnif mavjudotlar o'rtasidagi farqni va ularning kamolot yo'nalishini tushuntirishga xizmat qiladi. Hayvoniy ishq his-tuyg'u va instinktga asoslangan muhabbat bo'lib, unda jismoniy ehtiyojlar ustun turadi. Hayvoniy ishqda maqsad — tirik qolish, lazzat olish va tabiiy ehtiyojlarni qondirishdir. Masalan, oziq-ovqatga bo'lgan kuchli mayl va nasl qoldirish instinkti. Bu darajadagi ishq vaqtinchalik bo'lib, ruhiy yuksalishni kafolatlamaydi. Ruhiy ishq ongli va ma'naviy shaklga ega bo'ladi. Inson nafaqat jismoniy ehtiyojlarni, balki axloq, ilm, fazilat va haqiqatni sevadi. Masalan, ustozga hurmat va ilmga muhabbat, adolat, rostgo'ylik, ezgulikni sevish. Bu ishq insonni hayvoniy darajadan yuqoriga ko'taradi va ruhiy kamolot sari yetaklaydi. Ibn Sino ta'limotida eng oliy ishq — Allohga bo'lgan ishqdir. Bu darajada ishq endi shaxsiy manfaat yoki hissiy ehtiyojga bog'liq bo'lmaydi, balki mutlaq mukammallik manbaiga intilishga aylanadi.

Ilohiy ishqda Alloh — mutlaq go'zallik, mutlaq ilm va mutlaq kamolot sifatida anglanadi. Masalan, inson ilmni sevadi, ilm orqali haqiqatni anglaydi, haqiqat manbai Alloh ekanini idrok etadi va natijada ishq ilohiy darajaga ko'tariladi. Ibn Sinoning fikricha, barcha ishqlar aslida ilohiy ishqqa borib taqaladi. Chunki har qanday go'zallik,

bilim va mukammallik o'z manbasini Allohdan oladi. Shu bois mavjudotlarning harakati — Alloh sari bo'lgan intilishdir. Shunday qilib, ishq nafaqat insoniy tuyg'u, balki ontologik qonun sifatida namoyon bo'ladi.

Uning tahlilida ishq butun mavjudotlar uchun birlashtiruvchi ontologik kuch va hozirgi haqiqiy hayot uchun rad etib bo'lmas motivatsiya sifatida tasvirlanadi<sup>3</sup>. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, mavjudotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik va ularning harakatdagi uyg'unligi aynan ishq orqali ta'minlanadi. Har bir mavjudot o'z tabiatiga mos mukammallikka intiladi va bu intilish borliqning barcha qatlamlarida yagona qonun sifatida amal qiladi.

Shu ma'noda ishq borliqni parchalangan holatda emas, yaxlit tizim sifatida tushuntiradi, turli darajadagi mavjudotlar o'rtasida ichki bog'lanishni yuzaga keltiradi, koinotdagi harakatni tasodif emas, balki maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida izohlaydi. Ibn Sinoning fikricha, borliqdagi har bir narsa o'z-o'zicha emas, balki yuqoriroq mukammallikka qarab yo'nalgan holatda mavjud. Ishq ana shu yo'nalishning ichki sababidir. Moddiy jismlar tabiiy holatiga, tirik mavjudotlar hayotiy barqarorlikka, inson esa aql va ruhiy mukammallikka intiladi. Bu yondashuvda ishq harakatning ichki sababi, mavjudlikni saqlab qoluvchi kuch, kamolot sari yetaklovchi tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Ibn Sino tahlilida ishq faqat metafizik tushuncha bo'lib qolmay, balki real hayotdagi faoliyatning asosiy motivatsiyasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Insonning bilishga, yaratishga, axloqiy kamolotga intilishi aynan ishq bilan bog'liq. Masalan, inson ilmga intilsa, bu tashqi majburiyat emas, balki haqiqatga bo'lgan ichki ehtiyojdir, adolat va ezgulik yo'lida harakat qilish — jamiyat talabi emas, balki ruhiy mukammallikka intilishning natijasidir, san'at va ijod orqali go'zallik yaratish — inson ruhining o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish istagidir. Bu holatlar ishqni rad etib bo'lmas hayotiy kuch sifatida ko'rsatadi. Ibn Sino nazarida ishqsiz hayot ma'nosiz bo'lib qoladi. Chunki ishq bo'lmasa

<sup>3</sup> **Dani Ramdani**. The Concept of Love in Ibn Sina's Philosophical Mysticism: A Synthesis of Rationality and Sufism. July 2024. [Jaqfi Jurnal Aqidah dan Filsafat](#)

[Islam](#) 9(1):77-92.  
[https://www.researchgate.net/publication/382222694\\_The\\_Concept\\_of\\_Love\\_in\\_Ibn\\_Sina's\\_Philosophical\\_Mysticism\\_A\\_Synthesis\\_of\\_Rationality\\_and\\_Sufism](https://www.researchgate.net/publication/382222694_The_Concept_of_Love_in_Ibn_Sina's_Philosophical_Mysticism_A_Synthesis_of_Rationality_and_Sufism)

harakat yo‘qoladi, intilish so‘nadi, kamolot jarayoni to‘xtaydi. Ishq esa inson hayotiga yo‘nalish, maqsad, ma‘naviy mazmun bag‘ishlaydi. Shu sababli ishq nafaqat borliqni birlashtiruvchi ontologik kuch, balki insonning real hayotini mazmun bilan to‘ldiruvchi asosiy motivatsiya hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations).** Muxtasar qilib aytganda, Ibn Sinoning “Ishq risolasi” asari ishq tushunchasini falsafa tarixida yangi darajaga ko‘targan muhim manba hisoblanadi. Mutafakkir ishqni borliqning harakatlantiruvchi va birlashtiruvchi ontologik kuchi sifatida talqin qilib, mavjudotlarning kamolot sari intilishini uning asosiy mazmuni deb biladi. Ishqning moddiy, hayvoniy, ruhiy va ilohiy darajalarga ajratilishi esa inson va borliq rivojini quyi bosqichdan oliy mukammallikka tomon yo‘naltirilgan uzluksiz jarayon sifatida tushuntirish imkonini beradi. Ibn Sino ta‘limotida eng oliy ishq — Allohga bo‘lgan ishq bo‘lib, u barcha boshqa ishq turlarining yakuniy manbai va maqsadi hisoblanadi. Shu orqali mutafakkir inson hayotining ma‘nosi va ma‘naviy kamolotini ilohiy haqiqat bilan bog‘laydi. “Ishq risolasi” nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kunda ham ishq, ma‘no va kamolot masalalarini falsafiy jihatdan anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Emil L. Fackenheim. A Treatise on Love by Ibn Sina. <https://traditionalhikma.com/wp-content/uploads/2015/02/A-Treatise-on-Love-by-Ibn-Sina-Translated-by-Emil-L.-Fackenheim.pdf>
2. Sina Mashayekhi, Mohammadjavad Esmaeili. Philosophical Analysis of the Flow of Love in Designer Identities in Ibn Sina’s Risālah fi al-’ishq (Treatise on Love). February 2023. [https://orj.sru.ac.ir/article\\_1735.html](https://orj.sru.ac.ir/article_1735.html)
3. Dani Ramdani. The Concept of Love in Ibn Sina’s Philosophical Mysticism: A Synthesis of Rationality and Sufism. July 2024. Jaqfi Jurnal Aqidah dan Filsafat Islam 9(1):77-92. [https://www.researchgate.net/publication/382222694\\_The\\_Concept\\_of\\_Love\\_in\\_Ibn\\_Sina’s\\_Philosophical\\_Mysticism\\_A\\_Synthesis\\_of\\_Rationality\\_and\\_Sufism](https://www.researchgate.net/publication/382222694_The_Concept_of_Love_in_Ibn_Sina’s_Philosophical_Mysticism_A_Synthesis_of_Rationality_and_Sufism)
4. Kholikov L. Features of International Relations In The Development of the New Uzbekistan //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – T. 7. – №. 10.
5. Kholikov L. Theoretical foundations of nations and international relations //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 7. – №. 10.

